Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

IJTIMOIY-GUMANITAR

UDK 9.433

"QIZIL SHARQ" POYEZDINING TURKISTONDAGI FAOLIYATI HAMDA BXSR – RSFSR MUNOSABATLARI TARIXIGA YANGICHA YONDASHUV

Qahramon Kenjayevich Rajabov
O'zbekiston FA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi
Tarix fanlari doktori, professor
E-mail: qrajabov@gmail.com

Annotasiya: Mazkur maqolada XX asrning birinchi choragida BXSR hukumatiga nisbatan Markaz tomonidan yuritilgan siyosatning mustamlakachilik asosi hamda kommunistik mafkura ta'sirining kuchayishi bilan madaniyat sohasida ham yaqqol o'z aksini topdi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida mustamlakachilik siyosatining kuchayishi va uning faol a'zolariga nisbatan salbiy tashviqotlari taxliliga bag'ishlangan.

Xususan, Moskvada tashkil etilgan "Krasnыy Vostok" ("Qizil Sharq") agitatsiya poyezdining Turkiston ASSR, BXSR va XXSR hududlariga yuborilishidan maqsad, Rossiya davlatining kommunistik propagandasi bo'lib, bu propagandaning maqsad va vazifalarini tarixiy manbalar asosida tizimli tahlil va tarixiy ketma-ketlik asosida ilmiy jihatdan yoritib berishdan iborat sanaladi. Bu o'rinda "Qizil Sharq" agitatsiya poyezdi mustamlaka hududlarida tizimni qo'lga olish, mahaliy aholini qullik darajasini oshirishga qaratilgan siyosiy qurol sifatida gavdalanadi.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, Qizil Sharq, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, Aris, Chimkent, Pishpek, Perovsk.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПОЕЗДА «КИЗИЛ ШАРК» В ТУРКЕСТАНЕ И НОВЫЙ ПОДХОД К ИСТОРИИ ОТНОШЕНИЙ ВХСР - РСФСР

Аннотация: В данной стате ярко отражены колониалная основа политики, проводимой Сентром в первой четверти XX века, и влияние коммунистической идеологии в сфере культуры. Бухара посвящена анализу усиления колониалной политики в Народной Советской Республике и ее негативной пропаганды против ее активных членов. В частности, селю отправки агитатсионного поезда «Красный Восток» («Красный Восток») на территории Туркестанской АССР, СССР и СССР является коммунистическая пропаганда Российского государства. считается просветителским. В этом месте агитпоезд «Кизил Шарк» воплощается как политическое оружие, направленное на захват строя на колониалных территориях и повышение уровня рабства местного населения.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, Кызыл Восток, ВСИК, Арис, Шымкент, Пишпек, Перовск.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

THE ACTIVITY OF "KIZIL SHARQ" TRAIN IN TURKESTAN AND A NEW APPROACH TO THE HISTORY OF THE RELATIONS OF THE BXSR - RSFSR

Annotation: In this article, the colonial basis of the policy pursued by the Center in the first quarter of the 20th century and the influence of the communist ideology was clearly reflected in the field of culture. Bukhara is dedicated to the analysis of the strengthening of the colonial policy in the People's Soviet Republic and its negative propaganda against its active members. In particular, the purpose of sending the propaganda train "Krasnyi Vostok" ("Red East") to the territories of the Turkestan ASSR, the USSR and the USSR is the communist propaganda of the Russian state. is considered to be enlightening. In this place, the "Kizil Sharq" agitation train is embodied as a political weapon aimed at capturing the system in the colonial territories and increasing the level of slavery of the local population.

Key words: Turkestan ASSR, Kyzyl East, All-Russian Central Executive Committee, Aris, Shymkent, Pishpek, Perovsk.

KIRISH. BXSR hukumatiga nisbatan Markaz tomonidan yuritilgan siyosatning mustamlakachilik asosi hamda kommunistik mafkura ta'sirining kuchayishi madaniyat sohasida ham yaqqol ko'rinadi. Xususan, Moskvada tashkil etilgan "Krasnыy Vostok" ("Qizil Sharq") agitatsiya poyezdining Turkiston ASSR, BXSR va XXSR hududlariga yuborilishi aynan Rossiya davlatining kommunistik propagandasi hisoblanadi. Bu o'rinda "Qizil Sharq" agitatsiya poyezdi to'g'risida maxsus to'xtab o'tishni lozim topdik.

1918-yil 13-avgustda Moskvadan Qozon shahriga birinchi poyezd – V.I.Lenin nomidagi adabiy-instruktorlik poyezdi jo'nab ketdi. Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti (VSIK) nashriyotining harbiy bo'limi tomonidan tayyorlangan bu poyezd 6 ta vagondan iborat bo'lib, unda asosan kommunistik g'oyalar yoritilgan siyosiy adabiyotlar ortilgan edi. Faqat bir nafar agitator mavjud bo'lgan poyezd Qozondagi musulmonlardan iborat qizil armiya qismlarini adabiyotlar bilan ta'minlagach, ikki haftadan so'ng Moskvaga qaytadi[1, 9].

Bolsheviklar bunday agitatorlik poyezdlarini tashkil qilib, musulmon xalqlarini targ'ibot va tashviqot natijasida o'z tomonlariga ag'darishga urindilar. Xususan, bu paytda mavjud bo'lgan Turkiston ASSR, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasiga bunday agitatsiya va propaganda poyezdlari muntazam ravishda yuborib turildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tarixiy adabiyotlarda keltirilishicha, Butunrossiya MIK huzuridagi agitatsiya poyezdlari va paroxodlari maxsus instruktorlik bo'limi hammasi bo'lib quyidagi 8 ta agitpoyezd tashkil qilgan: V.I.Lenin nomli, Oktyabr revolyusiyasi nomli, "Qizil Восток" ("Красный Восток"), "Красный Казак", "Советский Кавказ", "Красное знамя", "Красный Север" va Ya.Sverdlov nomli[2, 11]. 1919-yili yanvardan 1920-yil oktyabrgacha bunday agitatsiya poyezdlari va paroxodlari juda faol bo'lgan. Ikki yil davomida agitatsiya poyezdlari mamlakatning chekka hududlari va milliy sovet respublikalarida bo'lib, juda katta hajmda ommaviy agitatsiya va propaganda bilan shug'ullangan. Ular mahalliy aholi o'rtasida kitoblar tarqatib, turli suhbatlar va leksiyalar o'tkazib, kommunistik g'oyaning afzalligi haqida safsata sotishgan. Masalan, "Qizil Sharq" poyezdi aholi o'rtasida 1 491 000 nusxa gazeta, 1 103 500 dona varaqa tarqatib, 10 914 584 rubl siyosiy adabiyotlarni sotgan.

“Qizil Sharq” agitpoyezdi Butunrossiya MIK Prezidiumi qarori bilan 1919-yili 11-yanvarda Moskvada tashkil qilingan. Bunday agitpoyezdlarni tashkil qilish, ularning marshrutlarini belgilash, agitatorlar va instruktorlarga tegishli yo‘l-yo‘riqlar berish, joylarda o‘tkaziladigan targ‘ibot va tashviqot ishlarining mohiyati bir necha marta VSIK Prezidiumi majlislarida ko‘rib chiqilgan[3, 14].

“Qizil Sharq” agitatsiya-instruksiya poyezdi 1919-yil dekabrda Mitishe vagonsozlik zavodida jihozlanib, uning birinchi reysi 1920-yil 23-yanvarda Moskvadan Turkistonga qarab jo‘nagan. Poyezdni kerakli uskunalar va adabiyotlar bilan jihozlash, agitatorlar va instruktorlar bilan ta’minlashga 1919-yil noyabr oyi boshlaridan boshlab jiddiy tayyorgarlik ko‘rilgan. Bu ishlarga VSIK huzuridagi Turkistondagi agitpoyezd va paroxodlar haqidagi bo‘lim mudiri Ya.Burov mas’ul bo‘lgan. “Qizil Sharq” agitpoyezdi mudiri qilib etnik tatar Burnashev tayinlangan. Poyezdning siyosiy bo‘limi 29 nafar kishidan iborat bo‘lib, ularga poyezd komissari (politkom) boshchilik qilgan. Poyezd komissarining yordamchisi Biserev bo‘lgan. Poyezdda 21 nafar qizil askarlardan iborat komendantlik bo‘limi mavjud edi. Unda yana kitob ombori va magazinlar bo‘lib, ularda kommunistik mafkura targ‘ib qilingan ko‘p miqdordagi siyosiy adabiyotlar saqlangan. Alohida vagon maxsus uskunalar bilan jihozlangan bo‘lib, bu erda maxsus ssena va kinobudka bo‘lgan. Bu vagonda bolsheviklarning mafkurasi ulug‘langan maxsus kinokartinalar va hujjatli lavhalar namoyish qilingan.

Poyezdda radiostansiya ham mavjud bo‘lib, radiostansiya boshlig‘i A.Ovchinnikov eshelonda eng dong‘i chiqqan kishilardan edi. Radiostansiya orqali yangi ma’lumotlar va Markazning ko‘rsatmalari olib turilgan[4, 16].

Agitpoyezdda hammasi bo‘lib 158 kishi bo‘lgan. Ular asosan madaniy-oqartuv ishlarini olib borishda mohir, bolsheviklar propagandasini targ‘ib va tashviq etishda katta tajriba to‘plagan, sovet davlati va kommunistlarga sodiq propagandistlar edi. Agitatorlarning ko‘pchiligi tatarlar bo‘lib, ular Turkiston tub aholisiga til va din jihatdan yaqin bo‘lganligi uchun bolsheviklar tatarlar omilidan unumli foydalanishgan.

VSIKning agitatsiya-instruktorlik poyezdi bo‘lgan “Qizil Sharq” 1920-yilda Moskvadan Turkistonga 2 marta jo‘nab ketgan. Birinchi reys 1920-yil 23-yanvarda boshlanib, 16 iyulda tugaydi. Poyezd marshruti Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on, Jizzax uezdlari, Farg‘ona viloyatining Qo‘qon, Xo‘jand, Jalolobod shaharlari, Xo‘jand uezdi, Sirdaryo viloyatining Aris, Turkiston, Chimkent, Avliyoota shaharlari, Jalpaktepa, Goroxovsk, Pokrovsk, Aleksandrovsk volostlari, Buxorodagi manzilgohlar hamda Yettisuv viloyatining Pishpek uezdi orqali o‘tgan.

“Qizil Sharq” poyezdi Toshkentdan Moskvaga quyidagi yo‘nalishda 14 iyunda jo‘nab ketgan: Aris, Chimkent, Pishpek, Perovsk (Qizil O‘rda), Orenburg, Samara[5]. Poyezdning ikkinchi reysi Moskvadan Toshkentga qarab 1920-yil 13-avgustda boshlanib, 1921-yil fevralgacha davom etgan. Bu vaqt ichida “Qizil Sharq” agitpoyezdi Farg‘ona viloyatining Xo‘jand, Qo‘qon, Skobelev (Farg‘ona), Namangan shaharlari, Melnikovo temir yo‘l stansiyasidagi ishchilar posyolkasida bo‘lgan. Poyezd 1920-yil 11-sentyabrda Toshkentga qaytib u erdan amirlik tuzumi endigina ag‘darilgan Eski Buxoroga qarab yo‘l olgan. Poyezd 16-oktyabrgacha Yangi Buxoro (Kogon), Eski Buxoro, Chorjo‘y va Qarshida bo‘lgan. 16-oktyabr kuni poyezd Toshkentga qaytib, ta’mirlash uchun Bosh temiryo‘l ustaxonasiga topshirilgan hamda u bu erda dekabr oyigacha bo‘lib, so‘ngra Zakaspiy viloyatiga jo‘nab ketgan[6].

Sovet davri tarixiy tadqiqotlarida “Qizil Sharq” agitpoyezdi haqidagi ayrim ma’lumotlarning to‘g‘ri yoritilganligini ta’kidlagan holda ular o‘z vaqtida mutlaqo

yoritmagan bir masalani aytib o‘tmoqchimiz. Tarixchi olim Q.Rajabovning yozishiga qaraganda, “Qizil Sharq” agitpoyezdi komissari va siyosiy xodimlari Farg‘ona vodiysining Qo‘qon, Namangan, Andijon, Marg‘ilon, Skobelev, Jalolobod, O‘sh, Xo‘jand shaharlarida bo‘lishganida sovet hokimiyatidan norozi bo‘lgan kishilarni qamoqqa olishgan va ularni kechqurunlari otib tashlab, jasadlarini ham yoqib yuborishgan. Qizil askarlar hatto mahalliy aholini pulemyotlardan o‘qqa tutishgan. “Qizil Sharq”dagi qizil kommunistlar bu ishni Samarqand viloyatining Samarqand, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaharlarda ham, Buxoro amirligiga qarashli manzilgohlarda ham, amirlik ag‘darilgach yangi tuzilgan BXSR hududida ham ommaviy ravishda amalga oshirganlar. “Qizil Sharq” poyezdining Farg‘ona va Buxorodagi bunday qatag‘on va terror siyosati, bolsheviklarning jazo choralari kelgusida alohida tadqiq etilishi kerak.

“Qizil Sharq” poyezdi 1920-yil 26-martda Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahriga etib keladi. RSFSRning favqulodda va muxtor vakili ishtirokida bu erda maxsus kengash o‘tkaziladi. Kengashda Buxoroda amirlik hokimiyatiga qarshi kurashni avj oldirish, amirlik hududidagi rus manzilgohlarida yashovchi evropalik aholini qurollantirib, amir sarbozlariga qarshi jangga yuborish, mahalliy aholi o‘rtasida kommunistik tashviqotni avj oldirish kabi masalalar ko‘rilgan[7].

Yangi Buxorodan agitpoyezd Samarqandga qaytib, bu erda 1920-yil 17 – 20-aprelda o‘tgan RKP(b) Samarqand uezd-shahar I konferensiyasi delegatlariga maxsus topshiriqlarni etkazishadi[8]. Bu paytda “Qizil Sharq” poyezdi tarkibi yangi miqdordagi qizil askarlar, komissarlar, siyosiy xodimlar va chekistlar bilan to‘ldirildi. Hatto agitpoyezd tomonidan ruscha “Красный Восток” gazetasi ham nashr qilingan.

Xullas, sovet davlati va bolsheviklarning xalqqa qarshi qaratilgan siyosatini asoslashda, mahalliy aholini sovetlashtirish jarayoni hamda kommunistik g‘oyalarni propaganda qilishda “Красный Восток” agitpoyezdi katta ishlarni amalga oshirdi. Bundan tashqari agitpoyezd komissarlari, chekistlar, qizil askarlar Turkiston va Buxoroda qatag‘on siyosatini yuritib, mahalliy aholini otib tashlashdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Sovet hokimiyati Turkiston va Buxoroda yuritgan milliy siyosatida ko‘proq tatar va boshqird kommunistlariga suyangan. Buxoroda ham faoliyat ko‘rsatgan ana shunday boshqirdlardan biri Karim Hakimov (1892 – 1937) hisoblanadi. U qizil armiya tarkibida 1920-yil avgustda Buxoroda amirlik tuzumini tugatishda faol qatnashgan. Uning boshchiligidagi tatar-boshqird qismlari poytaxt Buxoroni bosib olishda ishtirok etganlar. 1920-yil sentyabrda qayta tashkil qilingan Buxoro Kommunistik partiyasini mustahkamlash ishiga jalb qilingan. RKP(b) MK sekretari va RSFSR hukumatining Buxorodagi favqulodda vakili V.Kuybishevning talabi bilan Karim Hakimov 1920-yil 13-oktyabrda Buxoro Kommunistik partiyasi yangi tarkibdagi Markaziy Komitetining sekretari qilib saylandi[9]. Umuman olganda, Markaz Buxorodagi mafkuraviy jabhani o‘z qo‘lida tutib qolish uchun tatarlardan unumli foydalangan. 1921-yil yanvar – oktyabrda V.Kuybishev o‘rniga K.Hakimov RSFSRning BXSRdagi favqulodda vakili lavozimida faoliyat ko‘rsatgan.

Tadqiqotning avvalgi o‘rinlarida aytib o‘tilganidek, BXSR tashkil topgan birinchi kunlardayoq madaniyat va xalq maorifini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilgan edi. Buxoroda RSFSR yordamida o‘quv muassasalari ishi yaxshilangan va yangi maktablar tashkil qilingan. Buxoroda “xalq inqilobi” g‘alaba qilgan dastlabki kunlarda RSFSR bilan Turkistondan kelgan mutaxassislar yordamida qisqa muddatli turli xil kurslar tashkil etilgan. Bu kurslarni 1921-

yildayoq 1200 ga yaqin kadrlar bitirib o‘qituvchilik qila boshladi[10, 25].

1923 – 1924-o‘quv yilida BXSRda maktablar soni 70 taga, o‘quvchilar soni 4684 nafarga etdi. Bundan tashqari mahalliy aholining 572 nafar bolasi RSFSRdagi turli maktablarda tahsil oldi[11].

1923-yilda Moskvadagi Sharq mehnatkashlari kommunistik universitetida 30 nafar buxorolik kommunist ta'lim olgan. Toshkentdagi O‘rta Osiyo kommunistik universiteti ishchilar fakultetida 110 kishi, Moskvadagi Maorif uyida esa 220 o‘smir ta'lim olar edi.

1923-yil 1-mayda Eski Buxoroda birinchi sovet-partiya maktabi ochilib, uni dastlab 40 kishi, 1924-yilda esa 75 kishi bitirib chiqdi[12]. Bolsheviklar tomonidan tayyorlangan ana shu kadrlar va mutaxassislar keyinchalik Buxoroda kommunistik mafkurani tarqatish va yoyishda faollik ko‘rsatishdi.

BXSR bilan RSFSR hukumatlari o‘rtasida tuzilgan qardoshlik shartnomasiga muvofiq dehqonlardan 26 nafar yosh buxorolik 1921-yili Moskva shahar o‘quv yurtlariga ta'lim olish uchun yuboriladi. Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi raisi Fayzulla Xo‘jayev 1922-yil 29-noyabrda RSFSR Maorif xalq komissari Lunacharskiyga yo‘llagan maktubida 11 nafar bola turli maktablarda maxsus fanlardan ta'lim olish uchun yuborilayotganligini bildiradi hamda ularni o‘zlari xoxlagan o‘qishlariga joylashtirib qo‘yishda, yotoqxona, kiyim-kechak, oziq-ovqat va o‘quv qurollari bilan ta'minlashda yordam ko‘rsatishi so‘raladi[13].

1924-yil Moskvada o‘zbek va rus tillarida oylik ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy xarakterdagi “Buxoro turmushi” – “Бухарская жизн” jurnali o‘zbek va rus tillarida ham nashr etildi[14, 96]. Abdurahim Yusufzoda[15] muharrirligida chiqarilgan mazkur jurnalning birinchi – ikkinchi qo‘shma soni (mart-aprel, 1924-yil) chop etilgan.

Shuni aytish kerakki, Turkiston o‘lkasida ilm-fanni, madaniyatni rivojlantirish uchun musulmon Sharqining Istanbul, Qohira, Anqara kabi shaharlarida (inqilobdan avval va keyin ham) Abdurauf Fitrat, Usmon Xo‘ja, Miyonbuzruk Solihov, Said Xo‘jayev, Mulla Bekjon Rahmonov, Sattor Jabborov, G‘oziolim Yunusov kabi o‘nlab iste'dod egalari o‘qib keladilar. Biroq, xorijda (Turkiya, Misr, Germaniya) o‘qib kelgan yuzlab iste'dod egalarining taqdiri qatag‘on yillari fojia bilan tugallandi.

Buxoroda maorif va madaniyat sohasining rivojlanishi haqida RKP(b) MK sekretariatining 1923-yil 9-yanvarda chiqargan qarorida quyidagilar ko‘rsatilgan edi:

1. Moskva shahridagi Buxoro elchixonasi huzurida Buxoro Respublikasi hisobidan BXSR fuqarolarining bolalari uchun maktab tashkil etilsin. Maktabni tashkil etish ishlari Maorif xalq komissarining muovini o‘rtoq Yakovlevga va Millatlar xalq komissarining muovini o‘rtoq Broydoga yuklatilib, ularga har jihatdan yordam ko‘rsatilsin.

2. Maktab uchun darhol bino ajratishni Moskva Soveti (Mossovet)ga yuklatish zarur deb topilsin[16].

1922-yil oktyabr – noyabr oylarida BXSR Xalq Nozirlar Sho‘rosi raisi Fayzulla Xo‘jayev Berlinga “davolanish maqsadida” bo‘ladi. Aslini olganda 26 yashar navqiron va sog‘lom Bosh vazir Fayzulla Xo‘jayev Berlinga davolanish maqsadida emas, balki Germaniya va Yevropaning boshqa davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlik qilish uchun borganligi haqiqatga yaqindir. Biroq Moskvani chalg‘itish hamda bolsheviklarni bu tashrif siyosiy maqsadni ko‘zlamagan, u faqat “davolanish” uchun mo‘ljallangan degan fikrga ishontirish lozim edi. Shuning uchun ham Fayzulla Xo‘jayev Berlinga borganida germaniyalik malakali vrachlarga murojaat qilgan va “davolangan”.

Fayzulla Xo‘jayev Berlinga etib borganida Olmoniya gazetalari “Buxoro

Sho‘rolar Jumhuriyatining Xalq Nozirlar Sho‘rosi rahbari Fayzulla Xo‘jayev Olmoniyaga siyosiy hamda tijoriy ishlar bilan kelgan. Berlindan Angliyaga, Italiyaga, Fransiyaga, Belgiyaga, Chexoslovakiyaga va Turkiyaga boradur emish”, degan xabarlar yozib chiqardilar[17].

Fayzulla Xo‘jayev 1922-yil noyabr oyida Berlindan Buxoroga yo‘llagan maxsus “Berlin maktublari”da shuning uchun ham o‘z safaridan ko‘zlangan haqiqiy maqsadni Moskvaning sergak nigohi va chekistlar nazaridan pinhon tutish uchun dastlab quyidagi fikrlarni yozgan edi: “Olmoniyaning poytaxti shahri Berlinga kelganimga besh kun bo‘ldi. Olmoniya bilan Buxoro Sho‘rolar Jumhuriyati orasida na siyosiy va na iqtisodiy munosabatlar boshlanib ketmaganligi uchun, men Berlinga g‘ayri rasmiy suratda kelib, Olmoniya hukumat odamlari bilan ko‘rishmadim ham, Berlinga kelmagimni hech bir kimsaga xabarda etmadim...”[18].

“Berlin maktublari” xabarnomasi XX asr dastlabki o‘n yilliklarida Yevropa davlatlari tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib, o‘tkir siyosatchi va davlat arbobi Fayzulla Xo‘ja unda Yevropa siyosatidagi eng o‘tkir nuqtalarni yoritish bilan birgalikda Rossiya va Turkiya davlatlarining iqtisodiy ahvoli og‘ir bo‘lsa ham, ular siyosiy nazardan “butun Ovrupa davlatlaridan quvvatlidur”, deb ta’kidlaydi. Maktub quyidagi jumla bilan tugaydi: “... Yanada birlik va bir maqsadga qarab – ya’ni ozodlik harakatidur”[19].

XULOSA. Xullas, Fayzulla Xo‘jayev bundan 100 yil oldin Turkiya va Buxoro xalqlarining ozodlik harakati va mustaqil davlat taraqqiyoti yo‘lida birgalikda kurash olib borish va hamkorlik qilish zaruriyati to‘g‘risida gapirgan edi.

Umuman olganda, BXSR hukumati nafaqat Buxorodan, balki Turkiston ASSR va XXSRdan ham iqtidorli yoshlarni topib, tayyorlab, saralab ulardan 74 nafar talabani Buxoro davlati hisobidan tahsil olish uchun Germaniyaga yuborgan. BXSR hukumati raisi Fayzulla Xo‘jayev talabalarni Germaniyaga olib borish va o‘qishga joylashtirishni Xalq maorifi noziri Abdulvohid Burhonov [Munzim] (1875, Buxoro – 1934, Dushanbe)ga topshirdi. A.Burhonov shaxsan o‘zi buxorolik 44 talabani Germaniyaga olib borib, 1921-yil Berlindagi turli o‘quv yurtlariga joylashtirib qaytadi. Fitrat talabalarimizni Germaniyada yaxshi o‘qishga, kelgusida o‘z yurtlariga mutaxassis bo‘lib qaytish va uning istiqboli uchun fidoyi vatanparvar sifatida xizmat qilishga da’vat etadi. U hatto o‘zining toshkentlik shogirdi Vali Qayumxon va boshqalarni Samarqandga olib borib, ularni Amir Temur sag‘onasi oldida qasam ichiradi[20].

S.Ayniyning “Qiz bola yoki Xolida” nomli darsligi qizlar maktabiga mo‘ljallangan bo‘lib, u o‘zbek tilida yozilgan. Bu axloqiy-adabiy asar yangi zamon maktablari uchun tuzilgan birinchi darslik edi. Darslik o‘sha paytda Olmoniyada o‘qiyotgan turkistonlik 74 talaba va adibning do‘sti Abdulvohid Munzim ko‘magi va tashabbusi bilan 1922-yilda Berlindagi “Ozod Sharq” shirkati nashriyotida chop etilgan. Gap shundaki, mazkur talabalarning 56 nafari Buxoro Xalq Respublikasidan yuborilgan bo‘lib, barcha turkistonlik talabalarning o‘qish xarajatini shu jumhuriyat ta’minlab turar va bunga hukumat raisi F.Xo‘jayev hamda xalq maorifi noziri A.Fitrat otaliq qilishardi[21].

Manbalarda bu xususida shunday ma’lumot bor: “Buxoro Jumhuriyati Berlin markazidagi “Barbaross” ko‘chasida Buxoro tijorat vakolati uchun besh qavatli bino sotib oladi va kelgusida talabalarga zarur bo‘lgan sarf-xarajatlar uchun 9-10 yilga etadigan Olmon bankasida dollar joylashtirgan edi”. Uning miqdori 125 ming dollarni tashkil etishi ham o‘sha manbada qayd etilgan. Unda talabalar hatto o‘zlarining adabiy-ijtimoiy va ilmiy ruhdagi “Ko‘mak” nomli jurnalini chiqarib turganlar. Ulaar A.Fitratning “Hind ixtilochilari” dramasini ham o‘sha nashriyotda chop etilishiga erishganlar.

Biroq 1924-yil kuzida O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilib,

mustaqil Buxoro va Xorazm davlatlari tugatildi hamda 1925-yil fevralda O‘zbekiston SSR tashkil qilindi. O‘zbekiston SSR tuzilgach, Germaniyada o‘qiyotgan buxorolik talabalarni mablag‘ bilan ta’minlash to‘xtatildi va ular Vatanga qaytarildi. Ularning ba’zilari Boku, Toshkent, Moskvada o‘z o‘qishlarini davom ettirishdi. Biroq O‘zbekiston SSRga qaytgan talabalar XX asr 30-yillari o‘rtalarida mustabid sovet davlati tomonidan qatag‘on qilindi. Germaniyada qolgan sobiq buxorolik talabalar keyinchalik fan va madaniyat sohasida kuchli mutaxassis bo‘lib etishdilar hamda ular katta natijaga erishdilar.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida milliy madaniyat ahvoli hamda uning siyosiylashuv jarayoni murakkab kechdi. Bir tomondan, BXSR rahbarlari hukumat etakchisi Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi Yosh buxorolik jadidlar va taraqqiyparvarlar amirlik tuzumi ag‘darib tashlangach, yangi respublikada barcha sohalarda bo‘lgani singari madaniyat jabhasida ham zamonaviy ta’lim tizimi, maorif, adabiyot va san’atni joriy qilishga harakat qilganlar. Ular ilg‘or Yevropa davlatlari (Germaniya, Fransiya, Angliya) hamda Turkiya tajribasidan foydalanib, Buxoroda zamonaviy davlat barpo qilmoqchi bo‘lishdi. Ikkinchi tomondan, sovet Rossiyasi hamda Turkiston ASSR rahbariyati, bolsheviklar va sovet hokimiyati vakillari Buxoroda demokratik tuzum barpo qilishdan, xalq respublikasi o‘rnatilishidan manfaatdor emas edilar. Ular Buxoro Xalq Sovet Respublikasini tezroq sovetlashtirish va ruslashtirish niyatida yosh respublika rahbariyatini doimo kuchli bosim va nazorat ostida ushlab turishga intildilar.

BXSRdagi madaniy hayot doimiy ravishda Markazdan yuborilgan turli komissiya, byuro va bolshevik komissarlari nazorati ostida bo‘ldi. Kreml rahbariyati Xorazm va Turkistonda bo‘lgani singari Buxoroda ham mazkur davrda sovet madaniyatini qaror toptirish, kommunistik mafkurani xalq ongiga singdirish, sovetlashtirish va ruslashtirish jarayonlarini kuchaytirishga harakat qilishdi. Buxoro tuprog‘ida turgan bosqinchi qizil armiyaning o‘z mustaqilligi uchun kurashayotgan istiqlolchilarga qarshi harbiy amaliyotlaridan tashqari sovet davlati agitatsiya va propaganda (targ‘ibot va tashviqot) hamda madaniy-oqartuv masalalari faoliyatini kuchaytirishga intildi. Buning uchun Turkiston va Buxoroga yuborilgan “Qizil Sharq” agitpoyezdi siyosiy xodimlari va komissarlari (ularning ko‘pchiligi tatarlar va boshqirdlar bo‘lgan), chekistlar kommunistlardan unumli foydalandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mejenina Ye. Agitpoyezd “Krasnыy Vostok”. – Tashkent: Gosizdat UzSSR,1962. – S.9-10.
2. Mejenina Ye. Agitpoyezd “Krasnыy Vostok”. – S.11.
3. Mejenina Ye. Agitpoyezd “Krasnыy Vostok”. – S.14-15.
4. Mejenina Ye. Agitpoyezd “Krasnыy Vostok”. – S.16-17.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-20-fond, 1-ro‘yxat, 95-ish, 5-6-varaqlar.
6. Mejenina Ye. Agitpoyezd “Krasnыy Vostok”. – S.19-20.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-20-fond, 1-ro‘yxat, 107-ish, 14-16-varaqlar.
8. Mejenina Ye. Agitpoyezd “Krasnыy Vostok”. – S.23.
9. Gadilov L., Gumerov F. Karim Xakimov (Istoriko-biograficheskiy ocherk). – Ufa: Bashkirskoe knijnoe izdatelstvo, 1960. – S. 59-60.
10. Shukurov A. Buxoro Respublikasining RSFSR bilan hamkorligi. – Toshkent: Fan, 1972. – B.25.
11. Ishanov A.I. Buxarskaya Narodnaya Sovetskaya Respublika. – S.198.

12. Shukurov A. Buxoro Respublikasining RSFSR bilan hamkorligi. – B. 26.
13. O‘zbekiston milliy arxivi, 48-fond, 1-ro‘yxat, 55-ish, 14-varaq.
14. Qarang: “Buxoro turmushi” – “Buxarskaya jizn” (Moskva). 1924. №1-2. – 96 str.
15. Abduraxim Yusuf-Zade. Nashi zadachi // “Buxarskaya jizn” (Moskva). 1924. №1-2. – S. 13-16.
16. O‘zbekiston milliy arxivi, 48-fond, 1-ro‘yxat, 7-ish, 19-varaq.
17. Qarang: Fayzulla Xo‘ja. Berlin maktublari (Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi raisi birodar Fayzulla Xo‘jadan Markaziy firqa qo‘mitasiga kelgan) // “Buxoro axbori” (Buxoro). №111. 1922 yil 19 noyabr.
18. Fayzulla Xo‘ja. Berlin maktublari // “Buxoro axbori”. №111. 1922 yil 19 noyabr.
19. Fayzulla Xo‘ja. Berlin maktublari // “Buxoro axbori”. №111. 1922 yil 19 noyabr.
20. Qarang: Turdiev Sh. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. – Toshkent: “Akadem-xizmat” bosmaxonasi, 2006; O‘zbek yoshlari va xorijiy ta’lim. – Toshkent: Akademnashr, 2018 va b.
21. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. – Buxoro: “Durdona”, 2015. – B.139-173.